



KORXONALARDA ISO 45001:2018 – “SOG’LIQNI MUHOFAZA QILISH VA MEHNAT XAVFSIZLIGI BOSHQARUV TIZIMI” XALQARO STANDARTINI AFZALLIKLARI VA JORIY QILISH TARTIBI

Jo’raev Akbar Rayxonovich

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Davlat mehnat nazorati inspeksiyasi mehnatni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i. Tel: +99898 279-91-11, email a-juraev82@mail.ru

Begmatov Begzod Abduvaxobovich

Kambag‘allikni qisqartirish va mehnat masalalari ilmiy-tadqiqot instituti Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha markaziy laboratoriya rahbari. Tel: +99893 384-87-88 Email:b.begmatov@ilmr.uz

Jo’raev Anvar Rayxonovich

«Uz-Kor Gas Chemical» QQ Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo‘yicha direktor o‘rinbosari Tel: +99894 144-91-11 <https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7932488>

ARTICLE INFO

Received: 03rd May 2023

Accepted: 11th May 2023

Online: 12th May 2023

KEY WORDS

Sog‘liqni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi boshqaruv tizimi, Xalqaro standat, ish joyidagi baxtsiz hodisalar, zararli moddalar, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada korxonalarda halqaro standartlarni joriy tartibi, tashkilotlar uchun ISO 45001 sertifikatlashtirish talablari, Joriy qilish va sertifikatlash o‘rtasidagi farq va Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Kirish

Xalqaro mehnat tashkilotining hisob-kitoblariga ko‘ra, har yili 2,3 millionga yaqin erkak va ayollar ish joyidagi baxtsiz hodisalar yoki ish bilan bog‘liq kasalliklar natijasida hayotdan ko‘z yumishadi – o‘rtacha har kuni 6000 kishi.

Dunyo bo‘yicha har yili qariyb 340 millionta ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va 160 million kasb kasalliklari ro‘yxatga olinadi.

Faqatgina zararli moddalar ta‘siri oqibatida yiliga 651,279 ta o‘lim holati kuzatiladi.

Ayniqsa bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida keng ko‘lamli qurilish ishlari jadallik bilan olib borilish bilan bir vaqtda qurilish sohasida baxtsiz hodisalarning nomutanosib yuqori o‘shish darajasi kuzatilmoqda.

Tahlillarga ko‘ra ko‘pgina ishlab chiqarish bilan bog‘liq holda yuz berayotgan baxtsiz hodisalar Osiyo va Okeaniya mintaqalarida sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa ushbu raqam Xitoyda tez o‘shib bormoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti ushbu ma‘lumotlarni muntazam ravishda yangilab boradi, ushbu ma‘lumotlarni tahlili butun dunyoda baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari soni doimiy ravishda ko‘payib borayotganligini ko‘rsatadi.



Nima uchun xodimlar o'zlarini xavfsiz tutishmaydi?

1. Ular o'zlarini noto'g'ri tutganlarida hech qachon jabrlanmaganlar ("men buni doimo qilib yurganman va menga hech narsa bo'lmaydi", "bu bo'lishi mumkin emas");
2. Oddiygina xavflar xaqida xabardor emasligi; (*ya'ni xavflar kartasi bilan tanishmaganligi*)
3. Xavfsiz xatti – harakatlarning "ijobiy" oqibatlarini aniq va darhol namoyon bo'ladi, salbiylari esa tez orada yuz berishi shart emas yoki bo'lmashligi ham mumkin deb fikrlash;
4. Xavfsiz xatti – harakatlarni jimgina targ'ib qilish.

«Noto'g'ri va salbiy tushuncha»

5. Jarohatlanish va baxtsiz hodisalarni oldini olish – faqat mehnatni muhofaza qilish sohasidagi mutaxassislarni vazifasi va javobgarligidadir.
6. Mehnatni muhofaza qilish oldini olish uchun emas, balki allaqachon sodir bo'lgan voqeaga qaratilgan. Holatni asosiy sababi ildizini topmasdan, aksincha aybdorni topish va jazolash vazifa bo'lib qolganligidadir.
7. «Asosiysi, bizda barcha hujjatlar joyida!».
8. Yo'l-yo'riq berishda rasmiy yondashuv.

Yuqoridagilardan ayyon bo'ldiki, demak ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilish tizimini joriy etish va samarali yuritish uchun boshqa xavfsizlik madaniyati kerak!

Tashkilotlarda ISO 45001:2018 - Sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi boshqaruv tizimini afzalliklari va joriy qilish tartibi.

ISO 45001 - sog'liqni muhofaza qilish va mehnatni muhofaza qilish boshqaruv tizimlari uchun xalqaro standart bo'lib, ushbu standartni tashkilotda qo'llashga arziydimi yoki yo'qligini tushunish muhimdir. Uni tashkilotda joriy etishdan maqsad tashkilot ishini yaxshilash va xodimlar uchun xavfsiz muhitni yaratishdan iboratdir. **ISO 45001 sertifikat** - tashkilotning mehnat xavfsizligiga katta e'tibor qaratayotganidan dalolat beradi.

ISO 45001 standartini joriy qilish to'g'risida qaror qabul qilishda uning **10 ta** asosiy afzalliklarini bilish zarur.

Birinchi afzallik

Ushbu standart tufayli, tashkilot qolgan tashkilotlar orasida yetakchiga aylanishi mumkin. Ushbu zamonaviy standart joriy etilgandan so'ng, tashkilot eng yaxshilaridan biri sifatida tan olinadi. Ushbu standartning joriy etilishi tashkilotni raqobatchilardan ajratib turadi.

Ikkinchi afzallik

ISO 45001 sertifikat potentsial manfaator tomonlarning ishonchini uyg'otadi. Bu tashkilotning o'z xodimlarining xavfsizligini doimiy ravishda yaxshilashga intilishining tasdig'idir.

Uchinchi afzallik

ISO 45001 tashkilotga mehnatni muhofaza qilish sohasidagi ilg'or tajribalarni taqdim etadi, bu esa uning barcha ishlab chiqarish jarayonlarida o'z aksini topadi. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti **ISO** tomonidan ishlab chiqilgan ushbu standart Jahonning rivojlangan mamlakatlarida sanoatning barcha tarmoqlarida ko'p yillar davomida to'plangan tajribaning timsolidir.

To'rtinchi afzallik

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlaydi. **ISO 45001** standartining oddiy amalga oshirilishi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi



barcha qonunchilik talablarga muvofiqligini ta'minlaydi, chunki bunday talablarning doimiy monitoringi va ularning bajarilishi ushbu standart talablaridan biridir.

Beshinchi afzallik

Xodimlarning shaxsiy xavfsizligini oshirish. ISO 45001 har qanday jarayonda, shu jumladan ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanishda inson salomatligi va xavfsizligi uchun xatar (risk)larni hisobga oladi.

Oltinchi afzallik

Boshqaruv jarayonini takomillashtirish. ISO 45001 - boshqaruv tizimlari uchun barcha ISO standartlari kabi, yuqori boshqaruv yetakchiligiga asoslanadi. Yuqori rahbariyat ishtiroki va xatarni aniqlashning aniq belgilangan jarayoni natijasida ishlab chiqarish xavfsizligi doimiy ravishda takomillashtiriladi.

Yettinchi afzallik

Xavf va xatarni baholash. ISO 45001 samaradorligini oshirishda ichki audit tizimi orqali ishchilar salomatligi va xavfsizligiga potentsial tahdidlarni aniqlashga yordam beradigan "***erta ogohlantirish tizimi***" ni taqdim etadi.

Sakkizinchi afzallik

Daromad ortishi. ISO 45001 standartini joriy etish orqali xodimlarning ishchanlik qobiliyati va samaradorligi oshadi va ish davomida jarohatlanishlar soni keskin kamayishiga olib keladi. Bu barcha yo'nalishlar bo'ylab ish faoliyatini yaxshilanishi anglatadi.

To'qqizinchi afzallik

Ish joyidagi mavhum tizimlar va asboblarning sifatini boshqarishga emas, balki tashkilotda mehnat muhofaza qilishga e'tibor qaratiladi.

O'ninchi afzallik

Xatarlar va imkoniyatlar bilan ishlash. ISO 45001 nafaqat xatarlar, balki imkoniyatlar bilan ham shug'ullanadi, OHSAS 18001 va oldingi tizimlar asosan faqat xavflarni ko'rib chiqar edi. ISO 45001 standartining tashkilotda joriy etilishi juda ko'p afzalliklarni beradi. Natijada, ushbu boshqaruv tizimi talablari ish joyidagi salomatlik va xavfsizlikga ta'sir etuvchi xavfva xatarlarni kamaytirishga qaratilgan. Standart barcha jarayonlarda ishchi xodimlarni xavf va xatarlardan himoya qilishni birinchi o'ringa qo'yadi.


Deming Sikli va ISO 45001:2018

Xizmatlar va texnik xizmat ko'rsatish sifatini boshqarish tashkilot tomonidan muntazam ravishda, mehnatni muhofaza qilish va uni takomillashtirishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

Sifatni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari XX asrning ikkinchi yarmida V.E.Deming kabi olimlarning sa'y-harakatlari tufayli tizimlashtirildi.

ISO 45001 standarti ISO boshqa standartlari kabi Rejalash-Bajarish-Tekshirish-Harakat qilish siklini (PDCA-Plan-Do-Check-Act) o'z ichiga olgan jarayon yondashuvidan foydalanadi.


PDCA sikli barcha jarayonlarga va umuman sifat menejmenti tizimiga qo'llanilishi mumkin.



PDCA sikli haqida qisqacha tavsif:

- **Plan** - rejalashtirish - tizim va uning jarayonlari maqsadlarini ishlab chiqish, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish qonunchlik talablari va tashkilot siyosatiga muvofiq natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni aniqlash, xavf va imkoniyatlarni aniqlash;
- **Do** - rejalashtirilgan ishlarni bajarish;
- **Check** – bajarilgan ishlarni tekshirish va monitoring qilish;
- **ACT** - harakat – mehnatni muhofaza qilish ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha choratadbirlar ko'rish.

PDCA siklini amalga oshirish tashkilotga o'z jarayonlarini zarur resurslar bilan ta'minlash, ularni boshqarish, takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash va amalga oshirish imkonini beradi.





Tashkilotlar uchun ISO 45001 sertifikatlashtirish talablari

Agar, ISO 45001:2018 talablaridan foydalangan holda sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi boshqarish tizimini joriy qilinayotgan bo'lsa, u tugallangandan so'ng tashkilot SMQ va MX boshqaruv tizimini sertifikatlashni o'ylab ko'rish mumkin. *ISO 45001 boshqaruv tizimini joriy qilgandan so'ng, sertifikatlashtirish auditiga muvaffaqiyatli tayyorgarlik ko'rish uchun nima qilish kerak?* Aslida, sertifikatlashni qayerdan boshlash haqida aniq tasavvurga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Joriy qilish va sertifikatlash o'rtasidagi farq nima?

Joriy qilish - bu tashkilot ISO 45001 talablariga rioya qilish uchun zarur bo'lgan barcha qoidalar, siyosat, jarayonlar va protseduralarni yaratish va o'rnatish uchun o'tadigan jarayon.

Standart talablarini bajarilganligini muvaffaqiyatli tarzda tasdiqlash va auditni o'tkazish sertifikatlashtirish bo'yicha organ ISO 45001:2018 standarti talablarida nazarda tutilmagan. Biroq, tashqi auditorning tizimini ko'rib chiqishi va yaxshilanish imkoniyatlarini manfaatdor bo'lmagan tomon sifatida o'rganishi uchun juda ko'p sabablar mavjud.

ISO 45001 bo'yicha sertifikatlash uchun nima kerak?

Agar, tashkilot sertifikatlashtirish jarayonidan o'tishni tanlagan bo'lsa, tashqi auditorlar yakuniy sertifikatlashtirish auditiga kelgunga qadar bir nechta harakatlarni amalga oshirish mumkin. Auditorlar allaqachon hujjatlarni tekshirishning birinchi bosqichini yakunladilar, bunda ular tashkilotning hujjatlarini ISO 45001 standarti talablariga muvofiq bo'lishini tekshirib ko'radilar. Shundan so'ng tashkilot quyidagilarga ishonch hosil qilish mumkin:

§ 1. Barcha jarayonlar joriy etildi.

Modomiki, barcha jarayonlar hujjatlashtirilmagan bo'lsa ham, SMQ va MX boshqaruv tizimini bir qismi sifatida zarur bo'lgan barcha jarayonlar mavjudligi ta'minlanganligiga ishonch hosil qilish kerak. Bundan quyidagilar, ya'ni har bir jarayonni o'rnatilganligini, har bir jarayon joriy etilganligini va har bir jarayonni qo'llab-quvvatlanganligini (qoidalar o'zgarganda xodimlar bu haqda bilishiga va yangi kelgan xodimlarga xabar berilishiga ishonch hosil qilish). To'liq bo'lmagan jarayonlarga ruxsat berilmaydi.

§ 2. 2. SMQ va MX boshqaruv tizimi yaratildi.

Audit uchun jarayonlar qanday ishlashini ko'rsatuvchi tegishli hujjatlarga ega bo'lish zarur. Shu sababli, sertifikatlashtirish organi tomonidan yuborilgan tashqi auditorlar buni namoyish qilishda, zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashi uchun tashkilotdan ma'lum vaqt davomida SMQ va MX boshqaruv tizimidan foydalanishini istashadi. Ushbu muddatlar har bir sertifikatlashtirish organi uchun farq qiladi, lekin ko'pincha 4 oydan 8 oygacha, ba'zi hollarda esa 12 oygacha bo'lishi mumkin.

§ 3. 3. Barcha jarayonlar tekshirildi.

ISO 45001 - SMQ va MX boshqaruv tizimini samaradorligini baholashning asosiy jarayonlaridan biri bu ichki auditdir. Sertifikatlashtirish bo'yicha auditorlar o'z tekshiruvlarini o'tkazishdan oldin tashkilot tomonidan barcha jarayonlarni qamrab olgan holda ichki auditini yakunlashini kutishadi.

§ 4. 4. Yuqori rahbariyat tomonidan tahlil yakunlandi.

SMQ va MX boshqaruv tizimining yana bir muhim bahosi bu bajarilgan ishlarni tahlilini ko'rib chiqishdir. Bajarilgan ishlarni samaradorligini va natijadorligini tekshirish hamda



resurslarning to'g'ri taqsimlanganligini baholash uchun SMQ va MX boshqaruv tizimini kamida bitta yuqori rahbariyat tomonidan tahlil yakunlagan bo'lishi kutiladi.

§ 5. 5. To'g'irlovchi harakatlar amalga oshirildi.

Katta ehtimol bilan, bu vaqt ichida tashkilot tomonidan ichki audit, rahbariyat tomonidan tahlil va jarayonlarni monitoring qilish orqali nomuvofiqliklarni topish mumkin. Ushbu nomuvofiqliklar aniqlanganda, nomuvofiqlikni sabablarini bartaraf etish uchun ya'ni kelgusida uning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun to'g'irlovchi harakatlar amalga oshiriladi.

§ 6. 6. Yaxshilanishlar namoyish etildi.

SMQ va MX boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirildi? **To'g'irlovchi harakatlar** - takomillashtirishning usullaridan biridir, lekin tashkilot SMQ va MX sohasidagi jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlaridan foydalanishning boshqa usullari va maqsadlariga erishganini ko'rsatishi kerak.

Tayyorgarlik muvaffaqiyatli sertifikatlashning kalitidir

Hayotning ko'p jabhalarida bo'lgani kabi, agar tashkilot yetarli darajada tayyorgarlik ko'rmasa, ayrim muammolarga duch kelishi mumkin. Sertifikatlashdan oldin bajarilishi kerak bo'lgan qadamlar muhim ahamiyatga ega, chunki ular tashkilotning amalda bajargan ishlarini ko'rib chiqish uchun tashqi tomonni jalb qilishdan oldin SMQ va MX boshqaruv tizimi ishlashini ta'minlaydi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun biroz vaqt kerak bo'lsada, ular tashkilotning sertifikatlashtirish auditini yakunlashiga to'sqinlik qilishi va yakuniy sertifikatlashni kechiktirishi mumkin bo'lgan ba'zi muammolarni aniqlashga yordam beradi. Chunki, sertifikatlashtirish organining auditorlari tomonidan tashkilot rahbariyati sezmagani bo'lishi mumkin bo'lgan haqiqiy muammolarni ko'rsatishlarini va izlab topishlarini xohlamaydi.

Modomiki, tashkilot sertifikatlashtirish auditini uchun pul to'layotganini hisobga olar ekan, demak, u SMQ va MX boshqaruv tizimini takomillashtirishga yordam beradigan eng yaxshi ma'lumotlarni taqdim etilishiga ishonch hosil qilishi zarur.

ISO 45001 sertifikatini qanday olish mumkin?

SMQ va MX boshqaruv tizimini joriy etish va sertifikatlashtirish juda qiyin bo'lishi va ISO 45001 talablarining ko'pini tezda tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun, uni yaxshiroq tushunib olish maqsadida ISO 45001 standartini joriy etish va sertifikatlashda muqarrar ravishda yuzaga keladigan SMQ va MX boshqaruv tizimining asosiy elementlari haqidagi muhim savollarni batafsil bayon qiladigan quyidagi 12-bosqich ko'rib chiqiladi.

Amalga oshirish bosqichlari

1. Rahbariyatga qo'llab-quvvatlash bo'yicha murojaat qilish.

Ushbu muhim yetakchilik yordamini har bir rahbariyat vakili bilan alohida yoki yig'ilishda gaplashib olish orqali olish mumkin.

2. Qonunchilik talablarini bilish.

Tashkilot o'z tarmog'ida barcha mehnatni muhofaza qilish qonunchiligining mintaqaviy, milliy va xalqaro darajada qo'llashi kerak. *ISO 45001 standartining 6.1.3-bandida SMQ va MX boshqaruv tizimini muvaffaqiyatli joriy etish uchun tashkilotning amaldagi qonunchilikga muvofiqligini bilishi va qo'llab-quvvatlash talablarini belgilab o'tilgan.*

3. SMQ va MX boshqaruv tizimini amal qilish sohasini belgilab olish.



SMQ va MX boshqaruv tizimi butun tashkilotga yoki ko'p qirrali tashkilotning faqat bitta bo'linmasiga taalluqli bo'ladimi, shuni aniqlab olish kerak. Bu SMQ va MX siyosatini, shuningdek, SMQ va MX boshqaruv tizimini sohasida ishlab chiqiladigan maqsadlar va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun juda muhim ahamiyatga ega.

4. Jarayon va protseduralarni aniqlab olish.

Tashkilot SMQ va MX ga ta'sir etuvchi xavf va xatarlarni boshqarish uchun jarayonlar va protseduralarni ishlab chiqishi zarur. Shuningdek, qanday xavf va xatarlarni baholashni amalga oshirish kerakligini va qanday operativ nazorat va favqulodda tayyorgarlik tartib-qoidalariga ehtiyoj borligini, shuningdek, xodimlarni o'qitish va xabardor qilish orqali nimani hujjatlashtirilishi va nimani nazorat qilinishi mumkinligini tushunib olish kerak.

5. SMQ va MX jarayonlari va protseduralarini joriy qilish.

Boshqaruv va protseduralarning optimal ierarxiyasini hisobga olgan holda barcha jarayonlar va protseduralarni amalga oshirish algoritmini ishlab chiqish. Muvaffaqiyatga erishish uchun tashkilotdagi muayyan odamlar bilan yaqindan hamkorlik qilish va xodimlar o'rtasida qo'shimcha mas'uliyatni qanday samarali taqsimlash haqida o'ylab ko'rish zarur.

6. Xodimlarni o'qitish va ularni ISO 45001 bilan tanishtirish.

Xodimlarga ISO 45001 nima ekanligini va undan nima uchun foydalanish kerakligi, shuningdek jarayonlardagi har qanday o'zgarishlar haqida ma'lumot berilishi kerak. Buni **maxsus litsenziyaga ega va akkreditasiyadan o'tgan tashkilot bilan shartnoma rasmiylashtirish orqali** trening va seminarlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirish mumkin. Muhimi, har bir inson o'zining SMQ va MX boshqaruv tizimi tuzilmasiga qanday mos kelishini bilishi kerak.

7. Sertifikatlashtirish organini tanlash.

Maksimal muvaffaqiyatga erishish uchun tashkilot o'ziga to'g'ri bo'lgan sertifikatlashtirish organini tanlash muhimdir. Auditorlarning tashkilot sohasi haqida tajribasi va bilimlariga, u bilan bog'liq xavf va xatarlarga hamda ushbu sertifikatlashtirish organi boshqa qaysi tashkilotlarni sertifikatlaganligi va ularning qoniqish darajasi qanday ekanligiga hamda sertifikatlashtirish organi tashkilotga qanday foyda keltirishiga e'tibor qaratish kerak. Bu kelgusida tashkilot uchun eng mosini tanlash maqsadida, potensial sertifikatlashtirish organlariga beriladigan savollardir.

8. SMQ va MX boshqaruv tizimidan foydalanish va yozuvlarni saqlash.

SMQ va MX hujjatlari ish paytida tashkilotning jarayonlari haqida nima deyishini, ular yaxshi ishlayaptimi yoki to'g'irlovchi harakatlar berish davomida biror narsani o'zgartirish kerakmi yoki yo'qligini tushunish juda muhimdir. Shuningdek, xodimlar hujjatlarda yozilgan talablardan nima qilishlari kerakligini tushunadimi yoki ba'zi sohalarda qo'shimcha treninglar talab qilinadimi yoki yo'qligiga e'tibor berish zarur. Ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish yo'nalishlarini va bundan foyda olish ehtimolini aniqlash kerak. Tashkilot sertifikatlashtirish organidan boshqaruv tizimini tekshirishda yetarlicha **"TAYYoR"** deb hisoblashlari uchun qancha vaqt kerakligini so'rab olish kerak.

9. Ichki auditlarni o'tkazish.

Ichki audit - har bir ishlab chiqarish jarayonini tekshirish uchun foydalanadigan vositadir. Ichki auditlar jarayonning ishlashini qonunchilik va Xalqaro standart talablariga muvofiqmi yoki nomuvofiqmi, to'g'irlovchi harakatlar orqali hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar



mavjudligini va ayrim sohalarda tez-tez ko'rib chiqish zarurligini aniqlashga yordam berishi kerak.

10. Yuqori rahbariyat tomonidan tahlilni o'tkazish.

SMQ va MX boshqaruv tizimi yuqori rahbariyat rejasiga muvofiq ishlashi kerak, bu esa o'z navbatida amalga oshirilgan yaxshilanishlar va tegishli resurslarni taqsimlashni hisobga olgan holda to'g'ri amalga oshirilishi va samarali bo'lishi kerak.

11. To'g'irlovchi harakatlari tizimini ishlab chiqish.

To'g'irlovchi harakatlar SMQ va MX boshqaruv tizimidagi muommalarni bartaraf etishga va bundan tashqari jarayonlardagi o'zgarishlarni aniqlashda, ichki audit yoki rahbariyat tomonidan tahlil olib borishda, shuningdek baxtsiz hodisalarni tekshirish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni sababini bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

12. Sertifikatlashtirish auditini o'tkazish.

Tashkilot auditga tayyor bo'lgach, sertifikatlashtirish organi auditorlarini SMQ va MX boshqaruv tizimining rejalari, jarayonlari va protseduralarini ISO 45001 talablari bilan solishtirish uchun yuboradi. So'ngra, SMQ va MX boshqaruv tizimi yetarli darajada yetuk bo'lganda, sertifikatlashtirish organi asosiy auditni o'tkazadi. Bir necha kundan so'ng auditorlik guruhi o'z xulosalari, jumladan, har qanday zarur to'g'irlovchi harakatlari bilan hisobot beradi. Menejment tizimini ISO 45001 talablariga javob berishiga ishonch hosil qilishsa, ular sertifikatlashni tavsiya qiladilar.

Maqsadlarni amalga oshirish uchun reja tuzish

Tashkilot boshidanoq tegishli resurslardan foydalanish uchun SMQ va MX boshqaruv tizimini joriy etish va sertifikatlashtirish rejasini yaratish yo'llarini qidirish zarur. Ushbu rejalashtirish mavjud muammolarga yechim topishga va bajarishga yordam beradi. Buning natijasida ortiqcha vaqt va resurslarni behuda sarflashning oldini oladi.

ISO 45001 sertifikatlashtirish organini qanday tanlash kerak

Tashkilot ISO 45001 sertifikatiga egami? Agar, tashkilot ISO 45001 standartini joriy qilgan bo'lsa, SMQ va MX boshqaruv tizimini sertifikatlashni istasa, unga tashqi sertifikatlash organi kerak bo'ladi. Sertifikatlash organini tanlashda e'tiborga olish kerak bo'lgan ko'plab quyidagi mezonlar mavjud:

ISO 45001 sertifikatining narxi hal qiluvchi omilmi?

Sertifikatlash jarayonining narxi tashkilotdagi ko'p odamlar uchun katta tashvish tug'dirishi mumkin va bu, albatta, muhim bo'lsa-da, bu hal qiluvchi omil bo'lmasligi kerak. Tanlov qilishdan oldin quyidagilarni ko'rib chiqish zarur:

Akkreditatsiya

Sertifikatlashtirish organlari o'z xizmatlarini ko'rsatish uchun rasmiy ravishda akkreditatsiyadan o'tgan bo'lishi kerak. Akkreditatsiya odatda O'zbekiston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi "[O'zbekiston akkreditatsiya markazi](#)" DUK tomonidan amalga oshiriladi. Tashkilot tanlovni amalga oshirishdan oldin, o'zi tanlagan sertifikatlashtirish organini akkreditatsiyadan o'tganligiga ishonch hosil qilish muhimdir.

Tajriba

Har bir organ audit o'tkazishni xohlaydi, lekin sertifikatlash jarayonining to'liq qiymatga ega bo'lishi juda muhim va agar organing auditorlari tajribali bo'lsa, bu qiymat ko'proq bo'ladi. Organdan auditorlarni tajribasi va ular tomonidan tekshirilgan oldingi tashkilotlarning



isbotini so‘rash mumkin. Bu tashkilotga mos kelishi yoki yo‘qligini aniqlashga yordam beradi. Akkreditatsiyadan o‘tgan sertifikatlashtirish organlarida qaysi sertifikatlangan shaxslar auditor sifatida ishlayotganligini ko‘rsatadigan elektron ma‘lumotlar bazalari, shuningdek sertifikatlangan mijozlarning ma‘lumotlar bazalari mavjud.

Integratsiyalashgan tizimlarni tekshirish qobiliyati

Tashkilot ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001, ISO 50001 yoki ISO 22000 sertifikatlashtirish auditlarini talab qiladigan ko‘p qirrali boshqaruv tizimiga ega bo‘lishi mumkin va agar bitta sertifikatlashtirish organi ularni integratsiyalashgan auditda birgalikda ko‘rib chiqishi mumkin bo‘lsa, bu juda foydali bo‘lishi mumkin. Bu tashkilotga ko‘p vaqt va pulni tejaydi, chunki har bir audit uchun bir nechta audit o‘tkazadigan bir nechta organlar tashkilotning biznesi va uning boshqaruv tizimlari bilan tanishishi uchun vaqt kerak bo‘ladi. Boshqa tomondan, hamma narsani bitta auditga birlashtira oladigan auditorlik organi buni faqat bir marta bajarishi kerak bo‘ladi.

Mutaxassislik

Ko‘pgina sertifikatlashtirish organlari ma‘lum sohalarida ixtisoslashgani uchun obro‘ga ega bo‘lishadi va tanlov vaqtida buni e‘tiborga olish kerak. Misol uchun, bosmaxona qurilish tashkilotiga nisbatan ISO 45001 sertifikatiga nisbatan juda boshqacha talablarga ega bo‘lishi mumkin va sertifikatlashtirish organi bosmaxona bo‘yicha emas, balki qurilishda tajribaga ega bo‘lsa, tashkilot faoliyatining nozik tomonlarini tushuntirishga ortiqcha vaqt sarflashga to‘g‘ri kelishi mumkin. Bu esa tashkilotning auditdan maksimal foyda olish qobiliyatini kamaytiradi.

Uzoq muddatli munosabatlar

Tashkilot ham, sertifikatlashtirish organi ham keyingi bir necha yil davomida munosabatlarni davom etishini umid qilishadi. Agar tashkilot sertifikatlashtirish organi bilan uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatishi mumkin bo‘lsa, unga ma‘lum afzalliklar beriladi.

Masalan, manfaatdor tomonlar (*mahalliy hokimiyat organlari, xodim va ularning oilasi, biznes hamkorlar, davlat nazorat organlari, OAV va boshqalar*) qiziqish va ishonch ortadi hamda sertifikatlashtirish organidan oladigan umumiy xizmat darajasi yaxshilanadi. Shuning uchun sertifikatlovchini jalb qilishdan oldin uning obro‘si, doimiy mavjudligi, barqarorligi va moliyaviy ahvolini ko‘rib chiqishga arziydi, xuddi ko‘pchilik hamkorlar yoki yetkazib beruvchilar bilan bo‘lgani kabi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni alohida takidlash lozimki, ISO 45001:2018 – “Sog‘liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi boshqaruv tizimi” Xalqaro standartini joriy qilish korxonalariga nafaqat ishlab chiqarish bilan bog‘liq holda yuz berishi mumkin bo‘lgan baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklarini oldini olish, baxtsiz xodisalar oqibatida jabrlanganlar va ularning oilasiga to‘lanadigan tovon pullaridan (moliyaviy yo‘qotish) asraydi, balki korxonalarini, ayniqsa maxsulotlarini xorijga eksport qiladigan korxonalar maxsulotlariga xalqaro miqyosida talabni ortishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida Yangi O‘zbekistonni iqtisodiy taraqqiyotiga va xalqaro miqyosida mamlakatni imijini ko‘tarisgda hamda xodimlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish orqali inson qadrini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi



References:

1. Ўзбекистон Республикаси Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисидаги қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони билан тасдиқланган 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси.
3. (Гигиенические взгляды Абу Али Ибн Сины) -Ш.Атабаевнинг илмий мақоласи, 1978й.
4. Халқаро Меҳнат Ташкилотининг 2006 йилдаги меҳнат хавфсизлиги ва гигиенасига кўмаклашиш асослари тўғрисидаги 187-сонли Конвенцияси.
5. Халқаро меҳнат ташкилотининг хавфсизлик ва меҳнат гигиенаси ва ишлаб чиқариш муҳити тўғрисидаги 155-сон Конвенцияси.